TOHIR MALIKNING “TALVASA” VA AGATA KRISTINING “STAYLSDAGI SIRLI VOQEA” (“THE MYSTERIOUS AFFAIR AT STYLES”) ASARLARIDA JESTLAR HAMDA TANA HOLATI YORDAMIDA IFODALANADIGAN MA’NOLAR HAQIDA

Sobirova Nargiza Numonjonovna
Qo‘qon universiteti, filologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Mo‘minjonov Alisher Abdukunduzovich
Qo‘qon universiteti, Turizm va iqtisodiyot fakulteti talabasi
e-mail: nanoshsober@gmail.com
ORCID ID 0000-0003-4211-5423
https://doi.org/10.5281/zenodo.20484336

Annotatsiya: ushbu maqola qiyosiy adabiyotshunoslik masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘zbek va ingliz yozuvchilarining noverbal vositalar orqali ifodalanadigan hissiyotlarni yozuvda aks ettirishlari yoritilgan. Unda ayrim xatti-harakatlarning tasnifi keltirilgan, shuningdek, “Talvasa” va “Staylsdagi sirli voqea” asarlarida bosh orqali ifodalangan ayrim ma’nolar qiyosiy jihatdan tasvirlangan. Noverbal vositalar verbal nutqqa qo‘shimcha ma’lumot hamda bo‘yoqdorlik yuklaydi. Noverbal vositalarning kinetik, fonatsion va grafik kabi yirik turlarga ajratish mumkin. Ushbu turlar yana kichik guruhlarga bo‘linadi. Kinetika yunonchadan harakat degan ma’noni anglatib, jest, mimika, pantomima, mini va makro xatii-harakatlar, okulesika, gavda holati va sumbat kabilarga ajratish mumkin. Fonatsiya yunonchadan tovush degan ma’noni anglatib, ayrim olimlar paralingvistikani faqat fonatsion o‘zgarishlar bilan bog‘laydi. Ilmiy adabiyotlarda ovoz bilan bog‘liq masalalarni prosodika sohasining obyekti deb e’tirof etiladi. Fonatsiyaga ovozning ohang sifati, diapazoni, tembri va kuchi (balandligi), diksiya, ovoz toni, xarakterlovchilar (yoki tildan tashqari fonatsiya), pauza to‘ldiruvchilari, til imo-ishoralari, nutq tempi, artikulyatsiya kabi paralingvistik vositalar, tovushlar va intonatsion og‘ishlar, ya’ni nutq tovushining individual psixik va fiziologik xususiyati kiradi. Grafik vositalarga yozma nutqda qo‘llaniladigan tinish belgilari, unli va undosh harflarning qaytarilishi, smayliklar, emojilar, stikerla, grafon, ideogramma, diagramma, logogramma, grammatogramma kabilar kiradi. Maqolada noverbal vositalarning kinetik turiga kiruvchi xatti-harakatlar, xususan ingliz va o’zbek tilida noverbal vositalarning yozma nutqqa ko’chishidagi xususiyatlar, ikki tildagi o’xshashlik va farqlar aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: xatti-harakat, noverbal vosita, paralingvistika, bosh irg‘ash, bosh chayqash, bosh egish, imo-ishora.

Annotation: this article is devoted to the issues of comparative literary studies. It examines how emotions expressed through non-verbal means are reflected in the writings of Uzbek and English authors. The article provides a classification of certain types of behavior and comparatively analyzes some meanings conveyed through head movements in the works *"Talvasa"* and *"The Mysterious Affair at Styles"*. Nonverbal means add additional information and color to verbal speech. Nonverbal means can be divided into large types such as kinetic, phonation, and graphic. These types are further divided into smaller groups. Kinetics, which comes from the Greek word for movement, can be divided into gesture, mimicry, pantomime, mini and macro gestures, oculus, posture, and so on. Phonation, which comes from the Greek word for sound, some scholars associate paralinguistics only with phonation changes. In scientific literature, issues related to voice are recognized as the object of the field of prosodic studies. Phonation includes paralinguistic means such as the quality of the tone of the voice, range, timbre and strength (loudness), diction, tone of voice, characterizers (or extra-linguistic phonation), pause fillers, language gestures, speech tempo, articulation, sounds, and intonation deviations, that is, individual psychological and physiological characteristics of speech sound. Graphic means include punctuation marks used in written speech, repetition of vowels and consonants, emoticons, stickers, graphons, ideograms, diagrams, logograms, grammatograms, etc. The article reflects the kinetic type of nonverbal means, in particular, the features of the transfer of nonverbal means to written speech in English and Uzbek, the similarities and differences between the two languages.

Keywords: behavior, non-verbal means, paralinguistics, nodding, head shaking, bowing, gesture.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, insonning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi to‘g‘risida turli fikrlar va nazariyalar mavjud, lekin, ma’lumki, inson yer yuzida o‘z faoliyatini boshlagan ilk pallalarida noverbal nutq, asosan, imo-ishora tili yordamida bir-biriga signal uzatgan va o‘zaro muloqotni o‘rnatganlar hamda ichki kechinmalarini ifodalaganlar [4]. Bundan kelib chiqqan holda, shaxslararo tovushsiz yetkazilgan axborotni noverbal nutq deb atashimiz mumkin. Noverbal nutq og‘zaki va yozma nutqdan ancha avval paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, hattoki og‘zaki va yozma nutqning kelib chiqishiga asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lishiga qaramay, tilshunoslar tomonidan ancha yillar davomida tadqiqot obyektiga aylanmagan.

Noverbal nutq yoki noverbal muloqot haqida fikr yuritishdan avval bu tushunchaning mohiyatini tushunishga harakat qilsak, u insonning ijtimoiy, ongli

mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyoji hisoblanadi [5]. Turli hayvonlar va odamlarning turmush tarzi ikki taraf: tabiat bilan hamohang va tirik jonzotlar bilan aloqadorligini kuzatamiz. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinchi tur aloqalar bir-birlari bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzotlar ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi [2].

Inson muloqotga kirishar ekan, o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Z.Freydning psixoanaliz nazariyasiga ko‘ra, shaxslararo o‘zaro hamkorlik ilk bolalik davrida o‘zlashtirilgan tasavvurlar va mazkur davrda kishi boshidan kechirgan ziddiyatlar bilan belgilanadi. Z.Freyd kishilar liderlarga bo‘ysunishi va tobelikni his qilganliklari uchun ham ijtimoiy guruhlar tuzishadi hamda ularda qolishadi, – deydi [7]. Endi sizning lider yoki ergashuvchi bo‘lishingiz o‘z-o‘zidan sizning nutqingiz, ya’ni verbal yoki noverbal nutqingizda o‘z aksini topadi. Birinchi taassurot, ko‘pincha, shaxsning asosiy jihatlarini ochib beradi, bunda nutqning ravonligi va tezligi, ovoz toni, baland-pastligi, mimik harakatlar, jestlar, poza kabilar muhim rol o‘ynaydi.

Qo‘l orqali bajarilgan xatti-harakatlar, tinglovchini tinglashga majbur etadi. Kolgate universiteti direktori, psixologiya fanlari doktori Spenser Kelli imo-ishoralar odamlarni nutq akustikasiga e’tibor berishga majbur qilishini aniqladi. Kellining aytishicha, “imo-ishoralar shunchaki tilga qo‘shimchalar emas - ular aslida uning asosiy qismi bo‘lishi mumkin” [8]. Uning aytishicha, qo‘l harakatlaridan foydalanish tabiiy holat bo‘lib, ko‘rlar ham muloqot jarayonida ulardan foydalanishini aniqlagan.

Rostgo‘ylik va ochiq ko‘ngillilik, odatda, kaftlarni ochish orqali namoyon bo‘ladi. Ko‘rsatkich barmoq ustunlik va agressivlikdan, kaftlarni ishqalash yoqimli hodisani kutish, kaft va barmoqlarni chalmashtirish kutilgan voqea yoki hodisani kutilganday sodir bo‘lmaganidan dalolat beradi. Iyakni silash qaror qabul qilishning signali hisoblanadi. Qo‘llarni ko‘krak oldida qovushtirish mudofaa qilish, qo‘llarni ko‘krak oldida musht qilib kesishtirish esa agressivlik, dushmanlikni bildiradi [3].



1 – rasm. Ochiqlik

2 – rasm. Rostgo‘ylik

Bosh orqali ifodalangan paralingvistik ma’nolar turlicha. Bosh irg‘itish, bosh chayqash orqali norozilik, “ha” yoki “yo‘q” ma’nolarini, minnatdorlik, itoatkorlik, tasdiq, inkor, rozichilik, norozilik, salomlashish, ma’yuslik kabi ma’nolarni anglatish mumkin. Quyida misollar orqali buning isbotini topishga harakat qilganmiz.

1 - jadval

T.Malik “Talvasa”	**A.Christie “The mysterious affair at Styles”**
“Bosh irg‘ash” iborasi minnatdorlik, tasdiq, rozilik, salomlashish, xayrlashish kabi ma’nolarni ifodalaydi	
*Deraza tokchasiga omonat suyanib turgan mehmon unga **“rahmat” ma’nosida bosh irg‘ab qo‘ygach,** choyga nisbatan qarib kuyib ketgan piyozdog‘ni eslatuvchi choyni xo‘plab, huzurlandi.* 5-b.(minnatdorlik) *Bu gapni eshitib, xaridor miyig‘ida jilmayib qo‘yib, **bosh irg‘adi:*** *– Ko‘cha ko‘rgan odamga o‘xshaysiz.* 51-b. (rozilik) *Biz bir-birimiz bilan o‘lgunimizcha bog‘langanmiz. Tushundingmi? — Asror **nochor ravishda bosh irg‘adi.** — Kechki payt diskotekada ko‘rishamiz.* 89-b.(tasdiq)	*“You work at Tadminster, don’t you, Miss Murdoch?” **She nodded.*** p.10 *– Siz Tedminsterda ishlaysiz, shunday emasmi, miss Merdok?**U bosh irg‘adi.*** (rozilik) *“Look here, Mary, there’s the deuce of a mess. Evie’s had a row with Alfred Inglethorp, and she’s off.” “Evie? Off?”* ***John nodded gloomily**.* p.12 *– Mana qara, Meri, bu erda tartibsizlik bor. Evi Alfred Ingeltorp bilan janjallashib qolgan va u ketib qolgan.“Evi? Ketgan?”* ***Djon ma’yus bosh irg‘adi.***(tasdiq) *She moved away a step or two, and fingered one of the flower vases.* *“These are quite dead. I must do them again. Would you mind moving--thank you, Mr. Hastings.” And she walked quietly past*

“Akmal aka, mumkinmi?” deb ijozat so‘ragan bo‘ldi. Akmal unga qarab qo‘ydi-yu, bu mehmonning tashrifiga hushi yo‘qligini yashirmadi: berilgan salomga o‘tirgan yerida ***bosh irg‘ab alik olib*** *o‘zi ham zo‘rg‘a eshitadigan past ovozda: “Keling”, deb qo‘ydi.* 30-b. (salomlashuv)	*me out of the window, with a cool* ***little nod of dismissal****.* p.151 *U bir-ikki qadam orqaga yurdida, gul vazalaridan birini ushladi. “Ular butunlay so‘lishibdi. Men ularni yangilashim kerak. Iltimos, janob Xasting qochib tursangiz, rahmat.” U* ***soviqqina bosh irg‘ab,*** *deraza bo‘ylab yonimdan o‘tib ketdi.*(xayrlashuv)
“Bosh egish” iborasi itoat qilish, ma’yuslik, xafalik, aybdorlik kabi ma’nolarni ifodalaydi	
Bu tanbehdan ta’sirlangan mezbon yigitga yaqinlashib, yuziga tarsaki tortib yubordi. Yigit chegaradan chiqqanini anglab, ***boshini egdi.*** 8-b.(itoat) *– Haji qizga o‘xshab chaynalma! Gapni boshlaganingdan keyin oxirigacha ayt! “O‘ldirlaring!” deb men buyuribmanmi?* *– Bilmadim... – yigit shunday deb* ***aybdor odam kabi bosh egdi.*** 7-b.(aybdorlik)	***John bent his head.*** *“In that case, I have no alternative but to agree.”* p.30 ***Djon boshini egdi.*** *“Unday bo‘lsa, rozi bo‘lishdan boshqa ilojim yo‘q”.* (itoat)
“Bosh chayqash” iborasi inkor va norozilikni ifodalaydi	
– “Zo‘rroq” deysanmi? – Ustoz unga qarab ***bosh chayqadi.*** *– Adashyapsan. Zo‘rlik oyoq bilan bilakning quvvatida emas, iroda kuchida bo‘ladi.* 21-b. (inkor) *– Voy xayriyat-ey, uyda ekansan-a, qizim, — dedi u qo‘lidagi xaltasini stul ustiga qo‘yib. Keyin ko‘rishmoq uchun yaqinlashgan jiyani ko‘zlaridagi yoshni ko‘rib,* ***bosh chayqadi:*** *–*	*Finally he abandoned his task,* ***shaking his head gravely.*** *At that moment, we heard footsteps outside, and Dr. Wilkins, Mrs. Inglethorp's own doctor, a portly, fussy little man, came bustling in.* p.28 *Nihoyat, u* ***boshini qattiq chayqab,*** *o‘z vazifasini tark etdi. Shu payt biz tashqaridan qadam tovushlarini eshitdik va doktor Uilkins, missis Ingeltorpning shifokori, to‘ladan kelgan, tirishqoq kichkina odam kirib keldi.*(inkor)

Yana nima bo‘ldi, ona qizim? 77-b. (norozilik)	*This Mr. Inglethorp, I should say, is somewhat of a scoundrel--but that does not of necessity make him a murderer."* ***I shook my head, unconvinced.*** *"We do not agree, yeh?" said Poirot*. p.77 *Janob Ingeltorp, aytishim kerakki, qandaydir qabih inson, lekin bu uni qotilga aylantirishi shart emas."* ***Men ishonmay boshimni chayqadim.*** *– Biz rozi emasmiz, a? - dedi Puaro.* (norozilik)

Bosh irg‘ash tartibga soluvchi imo-ishoralar turiga kiradi. Tartibga soluvchi imo-ishoralar shaxsning muayyan holat yoki voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan misollar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: har ikkala tilda ham “bosh irg‘ash”, “bosh egish” hamda “bosh chayqash” iboralaridan faol foydalanilgan. Tohir Malikning *“Talvasa”* asarida “bosh irg‘ash” imo-ishorasi orqali minnatdorlik, rozilik, tasdiq hamda salomlashish ma’nolari ifodalangan bo‘lsa, Agata Kristining *“Staylsdagi sirli voqea”* asarida ushbu ibora yordamida asosan rozilik, tasdiq va xayrlashuv ma’nolari ifodalangan. “Bosh egish” iborasi *“Talvasa”* asarida itoat va aybdorlikni, *“Staylsdagi sirli voqea”* asarida esa faqat itoatni anglatadi. “Bosh chayqash” iborasi esa har ikkala asarda ham inkor va norozilik ma’nolarida qo‘llanilganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Agatha Christie. The Mysterious Affair at Styles. – John Lane, 1920.
2.Nurmatova Sh. Shaxslararo muloqot turlari va uning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati, Wordly knowledge: international journal of scientific researches, 2024. – Vol.5, Issue 2. – P.139-142
3.Пиз А., Пиз Б. Новый язык телодвижений (Расширенная версия). – М.: Эксмо, 2010. – Б.38.
4.Собирова Н.Н. Невербальная речь и фонация. // Проблемы современной науки и образования, 2022. – №4. С.29.
5.Собирова Н.Н. Невербальная коммуникация. // Проблемы современной науки и образования, 2022. – №5. С.22.
6.Тоҳир Малик. Талваса. – Ўқитувчи, 2019.
7.https://eurodomik.ru/uz/montazh/shpargalka-psihoanaliz-freida-psihoanaliz-freid.html. (murojaat sanasi: 05.12.2025).

8.https://www.scienceofpeople.com/hand-gestures/. (date of access: 26.12.2025)